

YOSHLARDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Umarova Shaxlo Baxtiyorovna

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

CHDPU, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada yoshlar orasida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Mediasavodxonlik yosh avlodni axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va raqamli madaniyatga moslashishga o'rgatishda muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, yoshlar, ta'lim, raqamli madaniyat, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, o'quv jarayoni.

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF FORMING MEDIA LITERACY IN YOUTH

Umarova Shakhlo Bakhtiyorovna

Teacher, Interfaculty Department of Social Sciences

ChDPU, Chirchik, Uzbekistan

Annotation This article explores the pedagogical significance of developing media literacy among youth. Media literacy is viewed as a key factor in teaching the younger generation to analyze information, think critically, and adapt to digital culture in a secure and responsible manner.

Keywords media literacy, youth, education, digital culture, critical thinking, information security, learning process.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishida axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalarining oʻrni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodning turmush tarzida internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar muhim oʻrin egallamoqda. Bu holat, bir tomondan, bilim olish, axborotga erkin kirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish kabi imkoniyatlarni kengaytirsa, boshqa tomondan esa yolgʻon maʼlumot, axborot manipulyatsiyasi, virtual dunyoga haddan tashqari bogʻlanish kabi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu boisdan yoshlar orasida mediasavodxonlikni shakllantirish zamonaviy taʼlimning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mediasavodxonlik — bu shunchaki texnologiyalardan foydalanishni emas, balki axborotni tahlil qilish, unga tanqidiy yondashish, uning ishonchliligi va maqsadini aniqlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtira olish qobiliyatidir. Bu koʻnikmalar yoshlarning ongli axborot isteʼmolchisi boʻlishi, virtual makonda masʼuliyatli ishtirok etishi va jamiyatdagi faol pozitsiyasini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Shu nuqtai nazardan, mediasavodxonlikni oʻrgatish taʼlimning faqat texnik yoki axborotga oid jihatlarigagina emas, balki axloqiy, ijtimoiy, madaniy va fuqarolik tarbiyasiga ham bevosita aloqador ekanligini anglash lozim.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda taʼlimda raqamlashtirish jarayonlari jadal surʼatlarda olib borilmoqda. “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi, axborot xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan davlat dasturlari, maktab va oliy taʼlim muassasalarida AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalarining joriy etilishi bu yoʻnalishda muhim ijobiy qadamlar boʻlib xizmat qilmoqda. Biroq raqamli texnologiyalarni egallash bilan birga, ulardan toʻgʻri va xavfsiz foydalanish madaniyatini ham shakllantirish zarurati tugʻilmoqda.

Yoshlar orasida mediasavodxonlikni rivojlantirish — bu ularni yolgʻon yangiliklardan, manipulyativ axborotdan, virtual shovinizm va ekstremistik kontentdan himoya qilish, shuningdek, ularga ijtimoiy tarmoqlarda sogʻlom

muhitni shakllantirish, turli manbalardan foydalanib ilmiy fikrlashni o'rgatish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu maqolada mediasavodxonlik tushunchasining mazmuni, uni yoshlar orasida rivojlantirishning pedagogik yondashuvlari va ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy e'tibor – bu tushunchaning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi, pedagoglar va o'quvchilarning bu boradagi tayyorgarligi, shuningdek, mediasavodxonlikni o'qitishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu masala nafaqat individual shaxs sifatida yoshlarning rivojlanishiga, balki umuman jamiyatda axborot madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Mediasavodxonlik tushunchasi bugungi kunda yoshlar ta'limi jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu atama keng ma'noda – insonning har xil turdagi ommaviy axborot vositalarini tushunish, tahlil qilish, ulardan foydalana olish va ijodiy mahsulotlar yaratish qobiliyatini anglatadi. UNESCO mediasavodxonlikni “mediyani tushunish, unga tanqidiy yondashish, foydalanuvchi va ishlab chiqaruvchi sifatida faol ishtirok etish” deb ta'riflaydi.

O'zbekistonda yoshlar orasida internetdan foydalanish darajasi yil sayin ortib bormoqda. Bu esa, bir tomondan, axborotga ochiqlik va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirs, boshqa tomondan esa yolg'on axborot, zararli kontent va internetga qaramlik xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli o'quvchilarni erta yoshdan boshlab mediasavodxonlikka o'rgatish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Ta'lim tizimida mediasavodxonlikni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik yo'nalishlar muhim sanaladi:

- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: o'quvchilar turli axborot manbalarini solishtirish, manbaning ishonchliligini aniqlash, shuningdek, manipulyativ axborotni ajratib olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

- Raqamli madaniyatni targ'ib qilish: ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati, onlayn etikaga amal qilish, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalarini qamrab olish.

– Amaliy mashg‘ulotlar: axborotni tahlil qilish, media materiallar tayyorlash, blog yozish yoki podkast yaratish orqali ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish.

Shuningdek, pedagoglar o‘zlari ham mediasavod bo‘lishlari kerak. Ular zamonaviy texnologiyalar, internet vositalari va media ta’siri haqida yetarli bilimga ega bo‘lishlari, dars jarayonida tanqidiy tahlil va interaktiv metodlarni qo‘llashlari zarur. Bu borada pedagoglar malakasini oshirish kurslari, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Yuqoridagi yondashuvlar nafaqat maktablarda, balki oliy o‘quv yurtlarida ham tatbiq etilishi kerak. Gumanitar soha bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar, ayniqsa, kelajakda jurnalist, o‘qituvchi, sotsiolog yoki madaniyatshunos sifatida faoliyat yuritadigan yoshlar mediasavodxonlikni chuqur egallashlari kerak.

Yoshlar orasida mediasavodxonlikni shakllantirish nafaqat zamonaviy ta’limning talabidir, balki jamiyat barqarorligini ta’minlovchi strategik zaruratdir. Axborot oqimining tezligi va ko‘lami ortib borayotgan hozirgi davrda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi zarur. Mediasavodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, ularni ongli axborot iste’molchisiga aylantiradi va raqamli makonda o‘zini tutish madaniyatini shakllantiradi. Bu boradagi chora-tadbirlar tizimli, bosqichma-bosqich va innovatsion metodlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikni shakllantirish – bu yoshlarning nafaqat axborotga nisbatan mas’uliyatli yondashuvi, balki ularning jamiyatdagi faol, mustaqil va ongli fuqarolar sifatida shakllanishini ta’minlaydigan muhim omildir.

Adabiyotlar:

1. Qodirov A. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2021.
2. Batirovich, T. A. (2022). Challenges and solutions to increase the efficiency of graphic education on the basis of interdiscipline

- membership. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(1), 265-268.
3. Хамракулова, Б. А. (2024). Формирование глобального восприятия механизмов разработки педагогических технологий у будущих учителей. Журнал гуманитарных и естественных наук, (7), 167-175.
 4. Eliboyevna, M. X. (2023). The Specific Types of Female Images in Victorian Novels. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 25, 12-14.
 5. Akhmedov, B. A. (2022). Principles of Developing the Professional Competence of Future Teachers on the basis of a Cluster Approach. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 760-770.
 6. Tojiboyeva, G. R. (2022). Development of the skill of calligraphic writing as a professional competence in a future primary school teacher. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 830-835.
 7. Rifovna, T. G. (2022). The specificity of the school" rivoqe"(development) in the development of the professional competence of the future primary education teacher. Conferencea, 478-480.
 8. Тожибоева, Г. Р. (2022). Профессиональная компетентность учителя начальных классов. World scientific research journal, 2(1), 94-99.